BUXORO VILOYATI JONDOR TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

200600, Jondor tumani, M.Tarobiy ko‘chasi, 26-uy. Tel: (65) 58-21-853, faks: 58-22-653, jondor.t@exat.uz

2023 - yil 21 - noyabr 385-2-35-Q/23 Jondor tuman hokimligi

Jondor tumani markazida yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-348-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar oldida transport vositalarining to‘xtab turish soni ortib borayotganligini inobatga olib, Jondor tuman markazida avtomobillarning harakatini tartibga solish maqsadida, tuman Ichki ishlar bo’linmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo’limining 2023-yil 05-sentabrdagi 35/2233-sonli xati hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25- moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Jondor tuman Ichki ishlar bo’linmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo’limining 2023-yil 05-sentabrdagi 35/2233-sonli xati inobatga olinsin.

2. Jondor tuman markazidagi 4r58m (M-37 avtomobil yo'lidan Jondor tumani markaziga kirish qismi) avtomobil yo’lining 2,8 km o’ng tomonida, 2,87 km chap tomonida, 1,62 km chap tomonida, 1,75 km chap tomonida, 1,86 km o’ng tomonida, Zarafshon MFY Do’stlik ko‘chasida jami 6 dona 3.27 «To‘xtash ta’qiqlangan» yo‘l belgisi o‘rnatishga ruxsat etilsin.

3. Buxoro viloyat ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (A.Jumayev) ushbu yo‘l belgisi o‘rnatish chorasini ko‘rsin.

4. Jondor tuman Ichki ishlar bo’linmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo’limi (M.Jalolov)ga mazkur avtomobil yo‘lida harakat xavfsizligini ta’minlash va yo‘l transport hodisalarini oldini olish vazifasi yuklatilsin.

5. “Jondor ovozi” gazeta tahririyati (I.Haydarov)ga yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan mazkur transport vositalarining to'xtashi taqiqlangan yo'l belgilarini ommaviy axborot vositalarida yoritish va aholini xabardor qilish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.Zokirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.XUDOYEV**